

**“TA’LIM MENEJMENTI VA IQTISODIYOTI”  
fanidan  
O’QUV DASTURI**

**Tuzuvchilar:** dots. Sabirdjanova D.K.,  
dots. Ibragimov P.

**Taqrizchilar:** prof. Sh.Zaynutdinov,  
dots. Sh.G. Tulyaganova.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlab, «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etish maqsadida o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarning yangi avlodini yaratishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni, o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalashni hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni amalga oshirmoqda.

Ushbu fan dasturi magistrantlarni o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, unda boshqarishning ilmiy asoslari, boshqaruv psixologiyasi, pedagogikasi, Oliy ta'limni boshqarish strukturasi va tizimini, DTS asosida ta'limni rejalashtirish va loyihalashtirish, Oliy ta'limni moliyalashtirish va marketing masalalari ko'rib chiqiladi.

Эти основные положения особенно важны для высшего образования при решении цели и задач, определенных законами Республики Узбекистан «Об образовании» и «О национальной программе по подготовке кадров». Для эффективного управления в сфере высшего образования необходимо партнерство между лицами ответственными за разработку и реализацию образовательной политики на национальном и институциональном уровне, между профессорско - преподавательским составом и магистрантами, сферой труда, вузами и обществом.

Настоящая показательная программа предназначена для магистрантов, изучающих предмет «Менеджмент и экономика высшего образования», где рассматриваются научные основы управления, управленческая психология, педагогика, этика, а также управление высшим образованием и другие вопросы.

Все это дает возможность подготовить высоко квалифицированные национальные кадры для Узбекистана.

These basic rules are especially important for sphere of higher education at the decision of the purposes and tasks determined by the laws of Republic of Uzbekistan, "About formation(education) " and " About the normal program on training of personnel". For active management in sphere of all formation(education) the partnership between the persons responsible(crucial) for development and realization of educational policy(politics) on nominal and a level, between Профессорско - teaching structure and магистрантами, sphere of work, high schools and society(community) is necessary.

The present indicative program is intended for магистрантам studying a subject "Management and economy of high formation(education)", where the administrative psychology, pedagogics ethics and also management of maximum formation(education) and other questions is considered(examined) new bases of management. All these enable to prepare the competent national staff for Uzbekistans.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (25 aprel 2002 yil 9 - sonli bayonnoma)

## **1. SO'Z BOSHI**

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, etuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu maqsadlar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining eng asosiy mazmun - mohiyati Davlat ta'lim standarti hisoblanib, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 16 avgustdagi 343 - sonli qarorida bayon etilgan.

Resuplikamiz iqtisodiyotining malakali milliy kadrlarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda tuzib chiqilgan Davlat ta'lim standartlariga kiritilgan «Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» fani magistrantlarning iqtisodiy ilmini, ularning bozor iqtisodiyoti jarayonidagi zamonaviy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

### **O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Ushbu dastur barcha mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlar uchun mo'ljallangan. Dasturda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida oliy ta'limni tartibga solish va boshqarish xususiyatlari, rivojlanishning istiqbol tendentsiyalari yoritib berilgan.

«Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» kursini o'rganishdan maqsad magistrlarda oliy ta'limni boshqarishda zarur bo'lgan zamonaviy andozalarga javob beradigan bilimlarni mustahkamlashga hamda nazariy - amaliy professional bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

**Mazkur fanni o'rganish vazifasi quyidagilardan iborat:**

- oliy ta'limni boshqarish borasidagi davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o'rganish;
- oliy ta'limni boshqarishni huquqiy - me'yoriy asoslari bo'yicha nazariy bilimga va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;
- moliya - byudjet, soliq va narx siyosatining rollarini aniqlab berish;
- shakllangan ijtimoiy va professional tajriba asosida bitiruvchilarning uzluksiz ta'lim tizimi mohiyatini o'rganish;
- tartibga solish uslubiyatini va milliy tizimdagi «Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» asoslarini o'rganib chiqishga ko'maklashish.

Mazkur fan iqtisodiy nazariya, makroiqtisodiyot, statistika, huquq fanlaridan berilgan nazariy bilimlarga to'liq asoslandi. Shuningdek, sotsiologiya, psixologiya va mehnat fiziologiyasi oliy boshqaruv muammolarini ishlab chiqishda katta rol o'ynaydi.

**Fanni o'qitish bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va mahoratiga qo'yiladigan talablar**

**a) bilishi kerak:**

- oliy ta'lim xususiyatlari va uni boshqarishning nazariy asoslari;
- shu sohani boshqarishda davlatning roli;
- Respublikada olib borilayotgan oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari;
- Respublikada oliy ta'limni moliyalashtirish xususiyatlari;
- oliy ta'limni rivojlantirishning davlat ta'lim andozalarini (standartlarini).

**b) bajarishi lozim:**

- jamiyatni demokratlashtirish borasida xalqaro tajribani o'qish, o'rganish;
- umuminsoniyat boyluklarini asrab, ulardan oqilona, bozor munosabatlariga moslashtirib foydalanish;

- Respublikada olib borilayotgan kadrlarni tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish.

**v) tasavvurga ega bo'lishi lozim:**

- masofadan o'qitishning afzalliklari va xususiyatlari to'g'risida;
- mutaxassislarga bo'lgan talabni aniqlash uslubi to'g'risida;
- mutaxassislarga bo'lgan talabni qondirish hisob - kitoblari haqida;
- horijiy mamlakatlarda oliy ta'lim tajribasi to'g'risida.

Amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar maksimal miqdoriga talablar

Amaliy va seminar mashg'ulot mavzulari namunaviy dastur asosida belgilanib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan birga alohida uslubiy qo'llanma shaklida tavsiya etiladi. Magistrantlar amaliy mashg'ulotlarga ularga tavsiya etilgan mavzular bo'yicha tayyorgarlik ko'rib, o'zining fikr va mulohazalarini ilmiy asosda referatlarda yozib ko'rsatadilar va himoya qiladilar. Seminar mashg'ulotlarida o'tkaziladigan muammoli dars mavzulariga berilgan seminar savollariga tavsiya etilgan adabiyotlar asosida tayyorgarlik ko'rib, o'zlarining fikrlarini yoqlab so'zga chiqadilar.

**Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Oliy ta'limning Davlat standartlarida mazkur kursga 40 soat hajmida vaqt ajratilgan. Ularning 20 (50 foizi) soati ma'ruza, 10 (25 foizi) soat amaliy va 10 (25 foizi) soati seminar mashg'ulot darslari rejalashtirilgan.

**Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

Fan bo'yicha magistrantlar bilimni baholab borish reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib, aniqlanadigan reyting ballari (40) nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- - joriy nazoratga amaliy va seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasining 70% (14 ball);
- - oraliq nazoratga ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70% (14 ball);
- - yakuniy nazoratga o'quv soat yuklamasining 30% (12 ball).

Joriy nazorat uchun ajartiriladigan reyting ballari talabalarning seminar darsidagi faolligi, ilmiy referat tayyorlanganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k) bajarganligi uchun qo'yib boriladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi, hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib ularga tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch so'z va iboralari bo'yicha bajargan yozma ishi uchun qo'yiladi.

### **Kompyuter, axborot va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash**

«Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» kursini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyaning quyidagi turlari ishlatiladi:

- - fan mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- - ma'ruza matndagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan oldindan tayg'rlab, guruh talabalariga tarqatish. Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha qzishdan ozod etadi;
- - test savollarini tuzish;
- - «tayanch» iboralarni ishlab chiqib, talabalar tomonidan ularni mukammal o'zlashtirishni ta'minlash;
- - talabalar uchun ayrim mavzular bo'yicha ma'ruzalarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqaradigan yuqori tashkilotlar ma'sul mutaxassisleri tomonidan o'tishini ta'minlash;
- - masofaviy o'qitishni tashkil etish kabi kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- - talabalarga xorijiy universitetlar professorlari tomonidan qzilgan ayrim ma'ruzalarni o'qib, teleekran orqali namoyish etish va boshqalar.

Fanga taalluqli INTERNET xizmatida mavjud bo'lgan saytlar ro'yxati:

1. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)
2. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
3. <http://can.naytov.com>
4. [www.plekhanov.ru](http://www.plekhanov.ru)
5. [www.litera.ru](http://www.litera.ru)

### **Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

«Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» kursi magistraturadagi barcha yo'nalishlarning 1 - kursida o'quv yilining ikkinchi yarim yilligida o'qitilib, oraliq va joriy baholanib, o'quv jarayonini oxirida yakuniy baholash bilan tugallanadi.

Ular ma'ruza darslari, amaliy va seminar mashg'ulotlarida o'z bilimlarini mustahkamlab, olgan bilim va ko'nikmalari asosida magistraturaning ikkinchi o'quv yilida olgan bilimlari asosida dissertatsiya ishlarini yozadilar.

«Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» fan dasturiga shu sohaning taniqli mutaxassisleri tomonidan yozilgan darsliklar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari asos qilib olingan iqtisodiy munosabatlar, jumladan, bozor faoliyatiga oid fikrlar, ko'rsatmalarni tegishli mavzularda ishlatish, maxkamasi bozor faoliyatiga taalluqli o'quv qo'llanmalaridan foydalaniladi, har bir mavzu bo'yicha jadval, chizma va grafiklar tayg'rlab, darsda ko'rgazmali qurol shaklida ishlatiladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Boshqarishning ilmiy asoslari**

Boshqarishning ilmiy qamrovliligini asosiy mohiyati. Boshqarish faoliyati, uning tamoyillari, shakllari va zamonaviy amalga oshirilishi. Odamzodning fan - texnika, iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlarni oshib borishi natijasida boshqarish faoliyatining ilmiy qamrovliligi. Boshqarishning yangi yo'nalishlari tatbiq etilishi. Inson xatti - harakatlari asosida ongli ravishda samarali boshqarish.

Nazariy va amaliy boshqaruv faoliyatida menejer modeli qo'yidagilarni nazarda tutadi: u yuqori zakovatli, tizimlashtirilgan biologik sifatlarga ega bo'lgan shaxs bo'lib, unda fizik, ma'naviy intellektual va intiluvchanlik xususiyatlari mavjud. Insonshunoslik vakolati - menejning tizimlashgan va adaptatsiyalashgan boshqaruv faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda uning antropologik bilimiga egaligi.

Boshqaruv strategiyasi quyidagi vazifalarni amalga oshirishga asoslanadi: strategik shakllanishni oldindan ko'ra bilish, yo'nalishni istiqbolli va aniq mas'uliyatlilik; aniq maqsad va vazifalar mas'uliyatini o'zgartirmoq; qabul qilingan ishning pirovardini baholash.

### **Boshqaruv psixologiyasi**

Shaxsning individual - psixologik (ruhiy) sifati. Odamlarni bilish - rahbarning «malakali bilimdonligining» ko'rsatkichi hisoblanadi. Individuallik - bu shaxs xatti - harakatini taqazo etuvchi va faoliyatning aniq turlariga mos keluvchi xususiyatdir. Bu shaxsning biosotsial xususiyatlari, uning takrorlanmasligidir. Shaxsning ijtimoiy psixologik sifati. Ijtimoiy his tuyg'ular kishilarning moddiy va ma'naviy qoniqishi (qoniqmasligi), ijtimoiy munosabatlardagi talablari, shuningdek insonlarning muayyan guruhga mansubligi.

Qadriyat mo'ljallari - maqsad yoki talabini qondirish vositasi bo'lgan yoki ma'naviy ne'matlarga shaxsning tanlab munosabatda bo'lishi.

Ijtimoiy ko'rsatma - ruhiyatning, shaxsning axborotni qabul qilish omili va unga munosabati.

Shaxsning «Ma'naviy - jamg'armasi» fundamental axloqiy qadriyatlarga asoslanuvchi ilmiy dunyoqarashidir.

Mehnatni rag'batlantirishning psixologik asoslari, insonlarni ongiga ta'sir o'tkazish, ya'ni psixologik mexanizm mehnatga rag'batlantirishda birinchi o'rinda turadi: asosiy ehtiyoji va qiziqishlarni qondirish mexanizmi, intilish va maqsadlarning bir - biriga bog'liqligi mexanizmi.

Ehtiyoj va qiziqishlar insonlarni harakat qilishga chaqiradi, ularning harakatlarini maqsadli va ma'lum bir yo'nalishini ta'minlaydi.

### **Boshqaruv pedagogikasi va etikasi**

Pedagogik yo'nalish va rahbarlik faoliyati. Istalgan rahbarga psixologik bilimlar bilan birga ma'lum bir pedagogik bilimlar kerak. Tarbiya jarayonida rahbar pedagogik vazifalarni: aqliy rivojlanganlik, xulq atvorlik, murojaat qilish qulayligi.

Mehnat jamoasining shaxsga ijtimoiy ta'sir etuvchi sifatida. Mehnat jamoasida tarbiyalanish - professionallik, huquqiy axloqiy va estetiklikka ega bo'lish.

Boshqaruv etikasi - xo'jalik va ma'muriy funksiyalarni sifatli bajarilishiga yo'naltirilgan nazariy etik bilimlar va amaliy maslahatlar tizimini o'z ichiga oladi. Nazariy - fundamental etik va tajribali yo'l - yo'riq ko'rsatish boshqaruv etikasi tizimida.



Shaxsning, jamoaning ma'naviy sog'lomligi. Jamoa faoliyatining natijasi nafaqat rahbarining axloqiy xususiyatlariga, balki har bir xodimning va jamoaning umumiy axloqiy sog'lomligiga bog'liqligi; jamoa faoliyatining natijasi; tushungan holdagi mehnat intizomi; ma'naviy yoqimlilik.

### **Oliy ta'lim tarkibi va boshqaruv tizimi**

Oliy ta'lim tizimining maqsadi va vazifalari: Davlat ta'lim standartlariga mos holda zamonaviy ta'lim - mutaxassislik dasturlari asosida raqobatlasha oladigan kadrlar tayyorlash va sifatli ta'lim berishni ta'minlash; yuqori malakali ilmiy - pedagogik kadrlar tayyorlash, shu jihatdan, chet el o'quv va ilmiy markazlariga.; iqtisod va madaniy, texnika va texnologiyalar, ilm - fanning zamonaviy yutuqlaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi istiqbollaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash uslubi va tashkilotini muntazam ravishda mukammallashtirib borish; o'qitishni individuallashtirish, masofali ta'lim berish vositalarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish; oliy ta'limni muruvvatli yo'nalishini ta'minlash va yoshlarni milliy tiklanish g'oyasi asosida va umuminsoniy boyliklarni his etib, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik. Vatanga, oilaga va atrof - muhitga (tabiatga) muhabbat ruhida tarbiyalash; ishlab chiqarish, fan - texnika va ta'lim integratsiyasi harakat mexanizmlarini amaliyotga joriy etish; taraqqiy etgan mamlakatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish.

Oliy ta'limni boshqarish darajasi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; ta'limni boshqarishda ijro etuvchi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Oliy o'quv yurti.

Oliy ta'limni boshqaruv tizimini markazlashgan va markazlashmaganligi. Ta'limni loyihalashtirish, rejalashtirishda DTSni yangi shakli sifatida. DTS ishlab chiqarishning asosiy tamoyillari - gumanitarlash va insonparvarlashtirish; fundamentatsiyalash; umumta'lim va malakali tayyorlov; ta'lim - malakaviy dasturni safarbar qilish; o'z o'zini o'qitish qobiliyatini rivojlantirish; ko'p darajali sifat nazorati.

### **Ta'lim sifatini boshqarish**

Kadrlar bilimlari sifati va mutaxassislikka tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar. Kadrlarni o'qitish sifati va mutaxassislikka tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: insonlar; texnologiyalar; material - texnika ta'minoti; me'yoriy - huquqiy va ilmiy uslubiy ta'minoti; stimul va motivlar; tashqi ta'sirlar.

O'quv muassasalarning attestatsiyasi va akkreditatsiyasi. O'quv muassasalarini akkreditatsiyasi - bu o'quv muassasalarini baholash va tasdiqlash

tizimidir, shuningdek ular tomonidan taqdim etilayotgan o'qitish darajasi to'raligi, mazmuni va sifati bo'yicha tayyorlash dasturlarni tasdiqlaydi. Akkreditatsiya xolisona va majburiy bo'lishi mumkin. O'quv muassalariga akkreditatsiyalangan status quyidagilarni beradi: akkreditatsiya statusini olgan o'quv muassasasi xukumat tomonidan moliyaviy yordamni olish imkoniyati bor bo'ladi; o'quv muassasasining akkreditatsiyalangan o'qitishda band bo'lgan sub'ektlarga o'zining ta'sirini ko'rsatadi: boshqaruvchilarga, professor - o'qituvchilik tuzilmasiga va o'quvchilarga akkreditiv qaror ish beruvchi va ish oluvchi o'rtasidagi «ko'prik» bo'lib hisolanadi.

Tashqi attestatsiya va o'zini - o'zi attestatsiya qilish mazmuni. Tashqi attestatsiya bu milliy masshtabda o'quv standartlarini bajarilishi nuqtai nazaridan o'quv muassasalari faoliyatiga baho berishdir. Umumiy boshqarish sifati tizimi quyidagi faoliyat turlariga bog'liq: sifatni rejalashtirish; sifatda o'zaro bog'liqlikni o'rganish; sifatni nazorat qilish; ta'lim jarayonida eng asosiy kamchiliklarni ochib tashlash va jarayonni doimo takomillashtirish, infratuzilmani yaratish sifatni yaxshilashni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan brigadalarni tuzish, har bir tashabbuskorlikni joriy etishga kirishish, maqsadlashgan ishchi guruhi bilan ta'minlash, maqsadga erishganlarni nazorat qilish, ishchi guruhlarini o'qitilishini bir xilda ta'minlash.

Jarayonni standartli tartibga keltirish va tartibli o'zlashtirishni tezlashtirish.

### **Boshqaruv tamoyillari va mexanizmi**

Ta'limni boshqarishning asosiy tamoyillari: faoliyatni tizimli rejalashtirish, boshqaruvning o'zgaruvchanligi, bir - birini tushunish va hamfikrlilik, komanda hamkorligi. Buyurtmachi talablarini bajarish, ijobiy fikrlash va qulay sharoit vakolatlarni berish.

Rahbar va hokimiyat. Ta'sir etish vositasi sifatida (Freng va Reyveka kvalifikatsiyasi bo'yicha) hokimiyat besh asosiy shakllardan iborat: majburlashga asoslangan, mukofotlashga asoslangan, ekspert, etalon, rahbariyatga bo'ysunish an'anasiga asoslangan qonuniy hokimiyatlar.

Har qanday toifadagi rahbarlik, avvalo, ish vaqtini to'g'ri taqsimlash, ishni unumli tashkil qilish va eng yaxshi natijalarga erishishdir.

Boshqaruv mexanizmi. Ishonch boshqaruvning asosi sifatida. Ishonch mas'uliyati o'z ichiga to'rtta holatni oladi: ma'lumot berish, tushuntirish, isbotlash, inkor etish.

Bo'ysunuvchilar bilan munosabatlar. Motivlashtirish va uning tarkibi. Motivlar ichki, tashqi va emotsional kayfiyat sifatida bo'ladi.

Ichki motivlarga: o'zlikni namoyon qilish, shaxsiy axloq, o'z o'zini boshqarish. Tashqi motivlar: moddiy rag'batlantirish, mansabda ko'tarilish, ma'naviy rag'batlantirish, majburlov choralari. Jamoaning emotsional kayfiyati - oshkorlik va axborotlilik, majburiyatlarni aniq va maqsadga muvofiq taqsimlanishi, jamoaning har bir a'zosi maqsadni aniq tushuntirish, rejalashtirishda ishtirok etishi, eng yaxshi mehnat har doim mukofotlanishini bilish, rahbarlar tomonidan aniq tashkil qilish va boshqarish jarayoni. nazorat, bu boshqarishning muhim omili. Tizimli nazorat va o'ziga - o'zi baho berish.

### **O'quv - tarbiyaviy jarag'nda o'zini - o'zi nazorat qilish boshqaruvning mexanizmi sifatida**

O'quv - tarbiyaviy jarag'nni (komponenti) majmuasi - ilmiy - pedagogik kadrlardan, o'qitilag'tganlar, resurslardan tashkil topadi. Hozirgi zamon o'qituvchisining modeli milliy kadrlar tayg'rlash dasturiga binoan shakllanadi. Hozirgi zamon o'qituvchisining muvaffaqiyati qo'yidagi «suyanchiq nuqtalarga» bog'liq: o'qituvchining malakasi, uning madaniyati va ma'naviyati; o'qituvchining talaba oladigan bilimlar saviyasi va malakasi uchun javobgarligi; talabalarni iqtisodiy va ijtimoiy tomondan talabalarni qo'llab - quvvatlash.

Resurslarga talablar. O'quv jarag'ni resurslarini rivojlanishi. Byudjet va nobyudjet manbalari orqali ko'p variantli moliyalashtirishni rejalashtirish. Talabalarga ta'lim kreditlari berish. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi.

O'zini - o'zi nazorat qilish o'quv - tarbiyaviy jarag'ni majmuasi. O'qituvchi - pedagogik kadrlarni baholash tamoyillari. O'qituvchi - pedagogik kadrlarni o'zini - o'zi nazorat qilish mexanizmi. Tasis dasturi asosida o'qituvchi - pedagogik kadrlarni so'rov yo'li orqali o'zini - o'zi attestatsiya qilish mexanizmi. O'qig'tganlar va ularning ota - onalarini so'rovdan o'tkazish. O'zini - o'zi nazorati ta'lim muassasalarini takomillashtirish asosi sifatida. O'quv jarag'ni sifatini oshirish bilan bog'liq ta'lim muassasasining taraqqig't rejasini ishlab chiqish.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim - tarbiya jarag'nini boshqarish asoslari

O'quv - tarbiyaviy jarag'nlarni loyixalashtirish (O'TJ). Tashkillashtirish rejasi bo'yicha o'quv - tarbiyaviy jarag'n ikki asosiy bosqichga bo'linadi: tadqiqot - izlanishlari va loyihalashtirish; amalga oshirish va nazorat qilish. Tadqiqot - izlanishlar tarkibini bashoratlashda talabga ehtig'j, malaka talablarini belgilash, ushbu talablarni imkon qadar o'rganib raqobatbardoshlik darajasida amalga oshirish. O'TJning o'quv - uslubiy va me'g'riy - huquqiy bazasini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq va o'zaro kelishuv asosidagi hujjatlarni ishlab chiqish, O'TJ ni loyihalash.

O'TJ ni boshqaruv mexanizmi. Pedagogik muloqot va pedagogik boshqaruv usuli. Motivlashtirish muvafaqqiyatli o'quv faoliyati asosi sifatida. O'ziga - o'zi ta'lim berishni boshqarish, o'zini - o'zi rivojlantirish va dolzarbligini oshirish.

Mustaqil ta'lim olishni boshqarish asosan ikki xil yo'nalish asosida amalga oshiriladi: mustaqil ish va individual ish tarzida. Mustaqil o'rganish quyidagi shakllar asosida tashkil etiladi.

Fanning mazularini g'ki bo'limlarini o'quv kitoblari g'ki o'quv qo'llanmalari orqali o'zlashtirish, avtomatlashtirilgan o'quv va nazorat tizimi orqali ishlash; fanlarning mavzulari g'ki bo'limlari ustida ishlash: hisob - kitob va grafikli masalalarni g'ki referatlarni, kurs ishi g'ki bitiruv malakaviy ishlarni bajarish; malakaviy amalig'tga kirishda yangi texnika, uskunalar va fan jarag'nlari va texnologiyalarni o'rganish; o'qituvchilar, mutaxassislar rahbarligida kichik - kichik korxonalarda nazariy va amaliy - ishlarni tashkil etish; talabalarning ilmiy izlanish ishlarining bajarilishi bilan bog'liq fanlarni g'ki bo'limlarni o'rganishni chuqurlashtirish; o'qitishning faol uslublaridan foydalangan holda, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish; masofadan turib o'qitishni tashkillashtirish va undan keng foydalanish.

O'TJ nazorati. Berilgan topshiriqlarga qarab nazorat - joriy, oraliq va yakuniydir. Nazoratlarni qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi: , qzma g'ki test nazorati.

Talabalarni o'quv faoliyati nazorati va o'quv uslubiy rejalashtirilganligi bilan ta'minlanish nazorati matritsa rejasidaligi.

Kerakli o'quv va uslubiy materiallar bilan ta'minlanganligi - o'quv adabiyotlari, seminar mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari: ma'ruza materiallari va amaliy mashg'ulotlar uchun nazorat ishi darajasi va tartibi; ekspres nazorat - materiallari; mustaqil ta'lim olish darajasi; uy vazifalarini bajarish uchun uslubiy qo'llanmalar, kurs ishlari.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish

Oliy maktab iqtisodiyoti. Oliy o'quv yurti iqtisodiyotini mustaqilligi - bu oliy o'quv yurti ishlab chiqarayotgan, tayyorlanayotgan mahsulotlarini tan olish.

Oliy o'quv yurtlarining moliyaviy mablag'lari va uning manbaalari - davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'dir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yildagi 414 - sonli «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish» haqidagi qarori mavjud.

Oliy o'quv yurtining byudjet tizimi quyidagi tamoyillarda ko'riladi - ichki moliyaviy tushumning uslubiy yagonaligi; daromad va xarajatlar hisobotini to'liqligi; oshkorlik; rahbarlar darajasi bo'yicha byudjet vakolatlarini taqsimlash.

Byudjet tushumi 3 darajaga ajratiladi: umumiy oliy o'quv yurtlari; alohida bo'linmalar darajasi; alohida ishlar, alohida ob'ektlar darajasi.

Oliy o'quv yurtlarining byudjetdan tashqari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha resurslarga bo'lgan ehtiyojining strukturasi: pullik ta'lim xizmati; ilmiy ishlab chiqarish faoliyati; tijorat faoliyati; homiylik faoliyati. Oliy o'quv yurtlari xayriya kengashlarini rivojlantirish fondi.

Horijiy mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi. Oliy ta'lim muassasalari turli yo'l va vositalar yordamida tijorat yo'nalishlaridagi ishlar bilan ham shug'ullanishlari mumkin: universitetlarning er maydonlari va zallari, turli xil konferentsiya, ma'ruza, ilmiy tadqiqot namoyishlari va boshqa shu xil tadbirlarni o'tkazish; universitetning ilmiy - pedagogik imkoniyati va salohiyatdan, er maydonlaridan foydalanish, ish quruvchi firmalar tashkil qilish; Oliy ta'lim maskani mutaxassis muallimlari ishtirokida turli xil tijorat kompaniyalariga maslahat xizmatini yo'lga qo'yish; aholiga qo'shimcha ma'naviyat xizmatlar ko'rsatish.

Oliy ta'lim iqtisodini rivojlanishi ishning umumjahon g'oyasi.

### **Oliy ta'lim tizimida marketing**

Marketing tizimida ma'lumot olish - bu asosiy natijalar iqtisodiy dasturlariga asoslangan bozorni kompleks o'rganishni yakunlovchi bosqichi. Bashorat qilish bilan rejalashtirish o'rtasida ichki aloqa o'rnatish asosiy masalasi. Bashorat qilish takomillashgan rejalarni ko'pincha bir - biriga uzviy bog'liqligini aniqlaydi. Ilmiy bashoratlarni bahs munozara qilish iqtisodiyotning rivojlantirish rejasini tarkib topishiga olib keladi. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun quyidagilarni ta'riflash kerak: ta'lim bozori ehtiyojlari; ta'lim sohasidagi xizmatlarni asosiy yo'nalishlari va ularga talab; moddiy - texnik, moliyaviy va kasbiy baza; ishlab chiqarishga mo'ljalni olish imkoniyati; mol va xizmatlarning narxlari, ulardan tushgan daromadlarni baholash.

Oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talabni bashoratli asoslari. Bashoratlarni metodologik asosi bo'lib bazaviy yondashuvlar quyidagilar asosida bashoratlanadi - me'yor va me'yoriy hujjatlar; iqtisodiy va bandlikni tarkibiy o'zgarishlar; texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar o'lchov g'oyasida. Bashorat bo'yicha 10 - 15 yillar mobaynida sezilarli tendentsiyalar: iqtisodiyotni muhim tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi o'sish dinamikasi kuchayishi, alohida sanoatniki; bandlik tarkibida bo'layotgan va kutilayotgan o'zgarishlar;

xususiylashtirish va kichik biznesni rivojlantirish hisobiga xo'jalik sub'ektlarini oshirish; mudofaa ishlab chiqarishlarni konvertsiyalash va ular asosida fuqaroni ishlab chiqarishni paydo bo'lishi; ishlab chiqarishni qayta texnik jihozlash.

Texnika - iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi tendentsiya asosida bashoratlash. Bashoratlash modeli bir necha bloklarni o'z ichiga oladi - iqtisodiyot holatini baholash; tarkibiy qayta qurish yo'nalishi tahlili asosida kutilayotgan iqtisodiy rivojlanish dasturi; kutilayotgan kapital mablag' hajmi; har xil kategoriyadagi ishchilar bandligi dinamikasi; soni va tarkibi jihatidan ishchilarni ishdan bo'shatishni kamaytirish; kutilayotgan demografik o'zgarishlar.

### **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI**

#### **Boshqaruv psixologiyasi**

Shaxsning individual - psixologik (ruhiy) sifati. Kishilarning qoniqish klassifikatsiyasi. Temperament turlari: sangvinik, flegmatik, xolerik, melenxolik. Shaxs xarakterining umumiy xususiyatlari.

Shaxsning ijtimoiy - psixologik sifati: ijtimoiy his - tuyg'u, qadriyat mo'ljallari, ijtimoiy ko'rsatma, intilish - kutish, stereotiplar, shaxsning «ma'naviy jamg'armasi».

Mehnatni rag'batlantirishning psixologik asoslari. Mehnatga psixologik rag'bat. Ehtiyoj va e'tibor. Insonlarni shaxsiy rag'batini aniqlashning asosiy omillari.\*

#### **Oliy ta'limni boshqarishni tarkibi va tizimi**

Oliy ta'lim tizimini maqsadi va vazifalari. Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari.\*

Oliy ta'limni boshqarish darajasi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat tomonidan ta'limni boshqarishi uchun vakil qilingan.

Oliy ta'limni boshqarish tizimi: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan. Boshqarish tizimini afzalligi va kamchiligining xarakterli belgilari.

#### **Boshqaruv mexanizmi va tamoyili**

Boshqaruv tamoyili. Ta'limni boshqarish tamoyili va uslubi. Ijodiy yondashuv tamoyili. Faoliyatni sistemali rejalash tamoyili. Boshqaruvning yumshoq uslubiy tamoyili. O'zaro tushunish va fikrlash tamoyili. Jamoa hamkorlik tamoyili. Buyurtmachiga moslashish tamoyili. Ijobiy fikrlash va sharoit tamoyili. Vakolatlarni berish tamoyili.

Boshqaruv uslubi: avtokratik, byurokratik, demokratik. Rahbar va hokimiyat. Majburiyatga asoslangan hokimiyat - qo'rqitish orqali ta'sir etish. Mukofotga asoslangan hokimiyat - rag'batlantirish orqali. Ekspert hokimiyat. Namunali hokimiyat - rahbarning shaxsiy xususiyatiga asoslangan tarzda. Rahbarning bo'ysunish andozasiga asoslangan hokimiyat. Boshqaruv mexanizmlari: ishontirish boshqaruv asosi sifatida, bo'ysunuvchilar bilan o'zaro munosabatlari, motivlash, nazorat.

### **Oliy o'quv yurtlarida o'quv - tarbiyaviy jarayonni boshqarish asoslari**

O'quv - tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish: tasniflovchi yo'nalishlar va oliy ta'lim mutaxassisliklari, bajarilishi shart bo'lgan minimum mazmuni va ma'lum yo'nalish bo'yicha bakalavrlar yoki magistrLAR tayyorlash darajasiga qo'yiladigan talablar, namunaviy o'quv rejasi, o'quv fanlarining namunaviy dasturlari, fanlarning o'quv rejalarini o'quv - uslubiy jihatdan ta'minlash, auditoriya mashg'ulotlari jadvali.

O'quv - tarbiyaviy jarayonni boshqarish mexanizmi. Pedagogik muloqot va pedagogik boshqaruvning uslubi. Motivlash - muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosi. Mustaqil ta'lim olish va uni boshqarish. O'quv - tarbiyaviy jarayonni nazorati.

### **Oliy ta'lim tizimida marketing**

Marketing tizimida bashorat. Mutaxassislarga talabni bashorat qilish tizimi. Bashoratlash va rejalashtirishning vazifalari. Bashoratlash funksiyalari. Oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyojni bashoratlashning asosi. Mutaxassislarga bo'lgan talabni rivojlantirish iqtisodiyotni ikki asosiy tarmog'i: material ishlab chiqarish va sotsial sohalari turli xil qonuniyatlarga asoslanadi. Mutaxassislarga bo'lgan talabni, bashoratlash va tarkibiy siljitish asosida amalga oshirilishi. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarish tendentsiyasi asosida bashoratlash. Bashoratlash modelining asosiy bloklari: iqtisodiy holatni baholash, iqtisodiyotni rivojlantirishning kutilayotgan dasturi, investitsiyalar hajmini kutilishi, har xil

kategoriyadagi ishchilar bandlik dinamikasi, kutilayotgan ishchilar soni, bo'shatilgan ishchilar tarkibi.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI**

“Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti” fani bo'yicha ko'rgazmali amaliy o'quv materiallari:

- - Oliy ta'lim tarkibi va boshqaruvi tizimi;
- - boshqaruv tamoyillari va mexanizmi;
- - o'quv tarbiyaviy jarayonni o'zini - o'zi nazorat qilish boshqaruvning mexanizmi sifatida;
- - Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish bosqichlari;
- - Oliy ta'lim tizimida marketing jarayoni.

Slaydlar ro'yxati

- - Shaxsning ijtimoiy psixologik sifati faoliyati;
- - Pedagogik yo'nalish va rahbarlik jarayoni;
- - O'quv muassasalarning attestatsiyasi va akkreditatsiyasi.

Axborot manbalari ro'yxati.

Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida chiqarilgan qarorlar, buyruqlar va ma'lumotlar.

#### **5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI**

«Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» fanidan nazorat qilish turlari quyidagicha:

- - fan uchun belgilangan maksimal ball - 40 ball
- - fan uchun saralash bali - 22 ball
- - shu jumladan, joriy baholash - 14 ball; oraliq baholash - 14 ball; yakuniy baholash - 12 ball.

#### **6. ADABIYOTLAR**

**Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.



2. Karimov I. A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li - T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I. A. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari - T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. - T.: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.Z. - T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. - T.: O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5. - T.: O'zbekiston, 1997.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - T.: O'zbekiston, 1999.
12. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. - T.: O'zbekiston, 2000.
13. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. - T.: O'zbekiston, 2001.
14. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10, - T.: O'zbekiston, 2001.
15. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. - T., 1997.
16. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T., 1997.
17. "Byudjet tizimi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni". - T., 9 oktyabr, 1999 yil.
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini islohlashtirish bo'yicha me'yoriy xujjatlar. 1 - qism. - T., 1998.
19. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini islohlashtirish bo'yicha me'yoriy xujjatlar. 2 - qism. - T., 1998.
20. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O korennom reformirovanii sistemi obrazovaniya i podgotovki kadrov, vospitaniya sovremennogo pokoleniya» - ot 6 oktyabrya 1997 g.
21. Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan 5 ot 5 yanvarya 1998 g. O razrabotke i vvedenii gosudarstvennix obrazovatelnix standartov dlya sistemi neprerivnogo obrazovaniya.

22. Postonovlenie Kabinetov Ministrov Respubliki Uzbekistan 48 ot 28 yanvarya 1998 g. O merax po uskoreniyu formirovaniya rinka obrazovatelnix uslug i marketinga v sfere podgotovke kadrov.
23. Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan <sup>1</sup>109 ot 11 marta 1998 g. Ob sozdanii v sostave gosudarstvennogo tsentra testirovaniya Upravleniya po kontrolyu za kachestvom podgotovke kadrov, attestatsii pedagogicheskix kadrov i obrazovatelnix uchrejdeniy.
24. Normativnie dokumenti po reformirovaniyu sistemi povisheniya kvalifikatsii i perepodgotovki kadrov v Respubliki Uzbekistan i perspektivnie plani, namechennie na 1999 - 2005 godi. Chast 1. - T., 1999.
25. Axliddinov R.Sh. i dr. Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poisk, resheniya. - T. Es - TESIS. 1999 g.
26. Batdenko V.I. Standarti v neprerivnom obrazovanii: Kontseptualnie, teoreticheskie i metodicheskie problemi. - M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov. 1999.
27. Gulyametdinov S.Z., Peregudov L.V. Nauchno - metodicheskie osnovi obespecheniya kachestva i konkurentosposobnosti kadrov. Ta'lim muammoalari, o'z, 1998.
28. Shepel V.M. Chelovekavedcheskaya kompetentnost menedjera. Upravlencheskaya antropologiya. - M.: Narodnoe obazrenie. 1999.
29. Peregudov L.V. O planirovanii, organizatsiyami i uchebno - metodicheskom obespechenii reytingovoy sistemi kontrolya znaniy, umeniy i navikov studentov. Ta'lim muammolari, 1998 yil 5 - son.
30. Peregudov L.V. Model sovremennogo prepodovatelya i ee obespechenie. Ta'lim muammolari. 1999 yil 1 - 2 - sonlar.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Oldrayd D., Axliddinov R.Sh., Xodjaev A., Jiyaxodjaev K. Metodika resheniya problem upravleniya obrazovaniem. - T.: ES - TESIS. 1999.
2. Saidov M.X. Osobennosti formirovaniya professionalnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistan. Mejdunarodnaya Konferentsiya studentov i aspirantov. - Lomonosovo: 2000.
3. Saidov M.X. Ta'lim krediti: mexanizmi, xususiyati va amaliyoti. Ta'lim muammolari. 2000 yil 2 - son.
4. Saidov M.X. Formirovanie byudjeta vuza po istochnikam finansirovaniya. Ekologicheskij vestnik Uzbekistana. <sup>1</sup>11 - 12. 2000.

5. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika SPB. Piter, 2000.
6. Farberman B.L. Peredovye pedagogicheskie texnologii. - T.: Fan. 2000.
7. Podgoovka Kadrov dlya rinochnoy ekonomiki: plani, programmi, texnologii. - M.: Akademiya menedjmenta i rinka. 2000.
8. Peregudov L.V., Saidov M.X. Menedjment i ekonomika visshego obrazovaniya. - T.: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev q. Menejment. Daslik. - T.: O'qituvchi, 2001.
10. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. - T.: O'qituvchi. 2002.